O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI MUZRABOT TUMANI HOKIMINING

Q A R O R I

Muzrabot tumani, Onadiyor ko‘chasi 1-uy. 191300, tel.: (+99876) 349-17-26, muzrabod.t@exat.uz

2022 - yil 13 - avgust 639-8-115-Q/22 Muzrabot tuman hokimligi

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bolalar masalalari bo‘yicha milliy komissiya to‘g‘risidagi nizomni va bolalar masalalari bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hamda tuman komissiyalari to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi 2022-yil 6-iyuldagi 363-son qarori hamda Surxondaryo viloyati hokimining 2022-yil 4-avgustdagi 446-8-0-Q/22-sonli qarori ijrosini ta’minlash haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Bola huquqlarining kafolatlarini ta’minlash tizimini yanada takomillashtirish choratadbirlari to‘g‘risida”gi 2021-yil 9-avgustdagi PF-6275-son Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bolalar masalalari bo‘yicha milliy komissiya to‘g‘risidagi nizomni va Bolalar masalalari bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hamda tuman (shahar) komissiyalari to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi 2022-yil 6-iyuldagi 363-son Qarori hamda Surxondaryo viloyati hokimining 2022-yil 4-avgustdagi 446-8-0-Q/22-sonli qarori ijrosini ta’minlash maqsadida

QAROR QILAMAN:

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Bolalar masalalari bo‘yicha milliy komissiya to‘g‘risidagi nizomni va bolalar masalalari bo‘yicha Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hamda tuman komissiyalari to‘g‘risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash haqida”gi 2022-yil 6-iyuldagi 363-son qarori (keyingi o‘rinda - Qaror) hamda Surxondaryo viloyati hokimining 2022-yil 4-avgustdagi 446-8-0-Q/22-sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2.Mazkur Qaror bilan:

Bolalar masalalari bo‘yicha milliy komissiya to‘g‘risidagi nizom tasdiqlanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilganligi va ayrimlari o‘z kuchini yo‘qotganligi inobatga olinsin.

3.Quyidagilarni nazarda tutuvchi:

a) Bolalar masalalari bo‘yicha Muzrabot tuman komissiyasi to‘g‘risidagi namunaviy nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin;

- tuman komissiyasining maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquqlari va majburiyatlari hamda faoliyatini tashkil etish tartibi;

- tuman komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqiladigan masalalar va bolalarni o‘quv-tarbiya muassasalariga joylashtirish chora-tadbirlari;

- tuman komissiyasining bolalar, ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarga nisbatan ta’sir ko‘rsatish choralari, qabul qiladigan qarorlari, ularning amal qilish hamda ularni ijro etish muddatlari.

4. Barcha komissiya a’zolari, tashkilot va idoralar o‘zlari qabul qilgan hujjatlarni bir hafta muddatda ushbu qarorga muvofiqlashtirsin va belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan har chorakda tuman komissiyasiga hisobot topshirilishi belgilansin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari (Sh.Azimov) hamda qaror ijrosini ta’minlash Bolalarni himoya qilish sho‘basi mudiri (M.Ilyosov) zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **E.J.Alimov**

Muzrabot tuman hokimining
2022 yil 13 avgustdagi
639-8-115-Q/22-son qaroriga
1-ilova

Bolalar masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi to‘g‘risidagi

NIZOM 1-bob.

Umumiy qoidalar

1.Ushbu Nizom Bolalar masalalari bo‘yicha tuman komissiya (keyingi o‘rinlarda matnda - tuman komissiya deb ataladi) faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2.Tuman komissiya davlat organlari va tashkilotlarning, shuningdek, Tuman komissiyaning bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiruvchi doimiy faoliyat yurituvchi kollegial organ hisoblanadi.

3.Tuman komissiya o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasining boshqa qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga, shuningdek, mazkur Nizomga amal qiladi.

4.Tuman komissiya o‘zlarining vakolati doirasiga kiruvchi masalalar yuzasidan faoliyatini tashkil etishda tegishli davlat organlari, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarni jalb qilish huquqiga ega.

5.Tuman komissiya o‘z vakolatiga kiritilgan masalalar bo‘yicha qabul qilgan qarorlari davlat organlari, tashkilotlar hamda fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiy hisoblanadi.

2.bob. Tuman komissiyasining asosiy vazifalari va funksiyalari

6.Quyidagilar tuman komissiyasining asosiy vazifalari hisoblanadi:

bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, uning sog‘lom turmush tarzini ta’minlash;

bolalarning jismoniy, intellektual, ma’naviy va axloqiy kamol topishiga ko‘maklashish;

bolaning ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lishining oldini olish choralarini ko‘rish;

bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish borasida ko‘rilayotgan choralarni baholash, monitoring qilish samaradorligini

oshirish;

bolalar o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid ma’lumotni to‘plash, saqlash, qayta ishlash, tahlil qilish hamda tegishli organlar va muassasalar faoliyati samaradorligini oshirish maqsadida ulardan foydalanish;

tizimli kamchiliklarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, tahlil qilish hamda ularni huquqni qo‘llash amaliyoti va qonun hujjatlarini takomillashtir yo‘li bilan bartaraf etish bo‘yicha takliflar kiritish;

bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish sohasida fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari bilan yaqindan hamkorlikni o‘rnatish;

bolalar sohasida tizimli kamchiliklarning sabab va shart-sharoitlarini aniqlash, tahlil qilish, ko‘rilayotgan choralarni baholash hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

davlat va jamoat yordamiga muhtoj bo‘lgan bolalarni aniqlash va hisobga olish choralarini ko‘rish;

ushbu sohada fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari bilan yaqindan hamkorlikni o‘rnatish.

Bolalar masalalari bo‘yicha tuman komissiyasi faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi va muvofiqlashtiradi.

Tuman komissiyasi yuqoridagilardan tashqari quyidagi vazifalarni amalga oshiradi:

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan, Respublika o‘quv-tarbiya muassasalaridan, davolash muassasalaridan yoxud ijtimoiy yordam muassasalaridan qaytib kelgan bolalarga ijtimoiy sharoitini yaxshilashda yordam ko‘rsatish, ijtimoiy himoyaga muhtoj yetim va ota-onasining qarovisiz qolgan bolalarni joylashtirish shakllarini aniqlashda ko‘maklashish, shuningdek, voyaga yetmaganlarni ijtimoiy reabilitatsiya qilishga doir qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa ishlarni amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga muvofiq komissiyalar vakolatiga kiritilgan ma’muriy huquqbuzarliklar

to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish;

bolalarga nisbatan ta’sir ko‘rsatish choralarini qo‘llash.

7.Tuman komissiya o‘ziga yuklatilgan vazifalardan kelib chiqib:

bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlash, ularning ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lishining oldini olish hamda ular o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

kam ta’minlangan va ehtiyojmand bolalar va ularning oilalarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha tegishli choralar ko‘radi;

tashkilotlar bilan ushbu sohadagi ijobiy ish tajribasini umumlashtiradi hamda ommalashtiradi, ularga tashkiliy-uslubiy yordam ko‘rsatadi;

manfaatdor tashkilotlar birgalikda ushbu sohadagi ustuvor yo‘nalishlar bo‘yicha o‘zaro kelishilgan yondashuvlarni ishlab chiqadi;

tuman dasturlarni ishlab chiqadi hamda amalga oshiradi va ijrosini nazorat qiladi;

hududlararo targ‘ibot va tashviqot tadbirlarini tashkil etadi, natijasi bo‘yicha tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqadi;

tuman bo‘linma va tashkilotlar faoliyati ustidan jamoatchilik Nazoratini kuchaytirish, nodavlat va notijorat tashkilotlari hamda ommaviy axborot vositalari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri hamkorlikni rivojlantirish choralarini ko‘radi;

davlat organlari va tashkilotlarning ushbu sohadagi faoliyatini o‘rganadi, aniqlangan qonunbuzilish holatlari bo‘yicha ta’sir choralarini qo‘llaydi;

davlat organlari va tashkilotlarning komissiya vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha takliflarni ishlab chiqadi;

tuman komissiya mas’ul kotibining malakasini oshirib borish choralarini ko‘radi;

bolalarni tarbiyalash, o‘qitish, saqlash (parvarishlash) sharoitlari, shuningdek, tegishli vazirliklar tasarrufidagi ta’lim muassasalarida voyaga yetmaganlarga bo‘lgan munosabat yuzasidan nazoratni amalga oshiradi;

bolalarning, ularning ota-onasi yoki ota-onasining o‘rnini bosuvchi shaxslarning, shuningdek, boshqa shaxslarning bolaning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilishi bilan bog‘liq shikoyatlari va arizalarini ko‘rib

chiqadi.

Tuman komissiya faoliyati bo‘yicha har chorakda tuman xalq deputatlari Kengashiga ma’lumot taqdim etadi, shuningdek, mazkur sohada olib borilayotgan ishlarni takomillashtirish bo‘yicha takliflar beradi.

Tuman komissiya qonun hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshirishi mumkin.

3.bob. Tuman komissiyasining huquqlari

8.Tuman komissiya o‘z vakolati doirasida quyidagi huquqlarga ega:

bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi to‘g‘risidagi xabarlar yuzasidan tegishli choralar ko‘rish;

davlat organlari va tashkilotlarda bolalarni saqlash, tarbiyalash va o‘qitish sharoitlarini nazorat qilish;

bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlash, ularning o‘rtasida qarovsizlik, nazoratsizlik huquqbuzarliklarning profilaktikasiga oid faoliyat yuritadigan huquqni muhofaza qiluvchi, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa davlat tashkilotlari, shuningdek, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari hamda nodavlat tashkilotlarni (keyingi o‘rinlarda — bolalar bilan ishlaydigan tashkilotlar) o‘rganish;

bolalar bilan ishlaydigan tashkilotlardan tuman komissiya ishi uchun zarur bo‘lgan ma’lumotlarni, shuningdek, tuman komissiya qarorlarida belgilangan chora-tadbirlar haqida ma’lumotlarni so‘rab olish;

komissiya faoliyati doirasida mansabdor shaxslarni, mutaxassislarni, bolalar bilan ishlaydigan tashkilotlar vakillarini va boshqa shaxslarni jalb qilish;

komissiya yig‘ilishlarida tegishli organlar va boshqa tashkilotlar rahbarlarining komissiya faoliyatiga oid masalalar yuzasidan axborotlarini eshitish;

yetim va ota-onasining qarovisiz qolgan bolalar uchun mo‘ljallangan ta’lim-tarbiya muassasalarida, Respublika o‘quv-tarbiya muassasalarida, tarbiya koloniyalarida hamda ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazlarida saqlanayotgan bolalar sharoitlarini, shuningdek, ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlar o‘rtasidagi huquqbuzarliklar profilaktikasi bo‘linmalaridagi ishlarning holatini tekshirish;

bolalar bilan ishlaydigan tashkilotlarga bola huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasini amalga oshirish bo‘yicha topshiriqlar berish;

bolalar bilan ishlaydigan tashkilotlarga tuman komissiya qarorlarini bajarmagan, shuningdek, tuman komissiyaning taqdimnomasida ko‘rsatilgan bolalarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari buzilganligi holatlarini bartaraf etish choralarini ko‘rmagan mansabdor shaxslarni javobgarlikka tortish to‘g‘risida taqdimnoma kiritish;

tuman komissiya tomonidan ko‘rib chiqilayotgan ishlar bo‘yicha bolalar va ularning oilalarini yig‘ilishga taklif etish, shuningdek, ishlarni joylarga borib ko‘rib chiqish;

bolalarni himoya qilish sho‘balariga ota-onalik huquqini cheklash yoki mahrum qilish, shuningdek, bolalarni muqobil shakldagi muassasaga joylashtirish bo‘yicha xulosa va takliflarni taqdim etish;

o‘z tashabbusi yoki ota-onalar yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning iltimosnomasiga ko‘ra, bolalarni Respublika o‘quv-tarbiya muassasasidan muddatdan avval chiqarish masalasini muhokama qilish;

bolalar jazo o‘tayotgan muassasalar ma’muriyatiga mahkumlarning avf etish, javobgarlikdan ozod qilish, ularga yengilroq bo‘lgan jazoni qo‘llash, ularni shartli ravishda hukm etish, sudlanganlikni muddatidan ilgari olib tashlash, jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yoki jazoning o‘talmagan qismini yengilroq jazo bilan almashtirish, ozodlikdan mahrum etish to‘g‘risidagi hukmning ijrosini kechiktirishni bekor qilish hamda mahkumni hukm da belgilangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini o‘tash uchun yuborish to‘g‘risida takliflar kiritish;

quyidagilar to‘g‘risida rozilik berish:

voyaga yetmaganlarni avf etish to‘g‘risida iltimosnoma kiritish, ularni javobgarlikdan ozod qilish, ularga yengilroq bo‘lgan jazoni qo‘llash, ularni shartli ravishda hukm etish, sudlanganlikni muddatidan ilgari olib tashlash to‘g‘risidagi taqdimnomalar bilan jinoiy ishlar bo‘yicha tuman (shahar) sudiga murojaat qilish;

jazoni ijro etuvchi organ bilan birgalikda voyaga yetmaganlarni jazodan muddatidan ilgari shartli ravishda ozod qilish yoki jazoning o‘talmagan qismini yengilroq jazo bilan almashtirish to‘g‘risida jinoiy ishlar bo‘yicha tuman (shahar)

sudiga taqdimnomalar kiritish;

ichki ishlar organi bilan birgalikda ozodlikdan mahrum etish to‘g‘risidagi hukmning ijrosini kechiktirishni bekor qilish hamda mahkumni hukmda belgilangan ozodlikdan mahrum qilish jazosini o‘tash uchun yuborish to‘g‘risida jinoiy ishlar bo‘yicha tuman (shahar) sudiga taqdimnoma kiritish;

tarbiya koloniyasining ma’muriyatiga ozodlikdan mahrum etishga hukm qilingan shaxslarni jazoni o‘tash vaqtida saqlab turish sharoitlarini o‘zgartirish haqida jinoiy ishlar bo‘yicha tuman (shahar) sudiga taqdimnoma kiritish.

4.bob. Tuman komissiyasi faoliyatini tashkil etish

9.Tuman komissiya raisi tegishlicha tuman hokimi hamda uning o‘rinbosarlari 14-20 nafar a’zosidan iborat tarkibda tuziladi.

Tuman komissiya a’zolari soni ish hajmidan kelib chiqib belgilanadi.

Tuman komissiya tarkibi tumanga xos vaziyat va mavjud resurslardan (tizim, tashkilotlar, xizmatlar va boshqalar) kelib chiqqan holda farqlanishi mumkin.

10.Tuman komissiya raisi:

Tuman komissiya yig‘ilishida raislik qiladi va uning ishini tashkillashtiradi;

davlat organlari, tashkilotlar, o‘zini o‘zi boshqarish organlari, muassasalarda tuman komissiya nomidan ishtirok etadi;

tuman komissiya yig‘ilish sanasini belgilaydi va kun tartibini tasdiqlaydi;

tuman komissiya vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha komissiya a’zolariga ijro uchun majburiy bo‘lgan topshiriqlar beradi;

tuman komissiya ish rejasi va dasturlari ijrosini nazorat qiladi;

tuman komissiyaning faoliyati bo‘yicha belgilangan hisobdorlikni o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlaydi.

11.Tuman komissiya o‘rinbosarlari:

Tuman komissiya raisi topshiriqlarini bajaradi;

tuman komissiya raisi yo‘qligida uning vazifalarini bajaradi;

tuman komissiya qarorlari va dasturlari ijro etilishini nazorat qiladi;

tuman komissiya yig‘ilishlarida ko‘rib chiqiladigan materiallarning o‘z vaqtida tayyorlanishini nazorat qiladi.

12.Tuman komissiya mas’ul kotibi:

Tuman komissiya yig‘ilishlarida ko‘rib chiqiladigan materiallarning tayyorlanishini ta’minlaydi;

tuman komissiya raisi va o‘rinbosarlarining topshiriqlarini bajaradi;

tuman komissiya yig‘ilishida ishtirok etuvchi komissiya a’zolari va shaxslarni yig‘ilish vaqti va kuni haqida xabardor qiladi, ularning hozirligini tekshiradi, komissiya yig‘ilishida ko‘rib chiqiladigan materiallar bilan tanishtiradi;

tuman komissiya yig‘ilishlari yakuni bo‘yicha bayonnomalar tuzadi, tuman komissiya tomonidan qabul qilingan qarorlar loyihasini tayyorlaydi va rasmiylashtiradi;

tuman komissiyaning ish reja va dasturlariga takliflarni umumlashtiradi, komissiya qarorlari, ish reja va dasturlarining ijro etilishini ta’minlaydi;

tuman komissiya faoliyatiga oid ish yurituvni amalga oshiradi;

tuman komissiya qarorlari nusxasining taqdim etilishini ta’minlaydi.

Tuman komissiya mas’ul kotibi oliy ma’lumotga ega bo‘lgan shaxslar orasidan tayinlanadi.

13.Tuman komissiya a’zolari komissiya vakolatiga kiradigan masalalarni ko‘rib chiqishda va muhokama qilishda teng huquqqa ega hamda quyidagilarni amalga oshiradi:

tuman komissiya yig‘ilishlarida va ularni tashkil etishda ishtirok etadi;

tuman komissiya yig‘ilishlarida ko‘rib chiqish uchun tayyorlangan ish materiallari bilan oldindan (yig‘ilishgacha) tanishadi;

masalani (ish) ko‘rib chiqishni qoldirish va unga qo‘shimcha materiallarni so‘rab olish taklifini beradi;

bolalar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta’minlash, ularning o‘rtasida nazoratsizlik va huquqbuzarliklarning profilaktikasi bo‘yicha takliflar beradi;

Tuman komissiya raisining topshiriqlarini bajaradi.

14.Tuman komissiya a’zosi yig‘ilishda ishtirok eta olmasa, ko‘rilayotgan masala bo‘yicha o‘z fikrini oldindan yozma ravishda taqdim etish huquqiga ega.

Bunda uning fikri komissiya yig‘ilishida tanishtiriladi va yig‘ilish bayonnomasiga ilova qilinadi.

15.Tuman komissiya qarorlari komissiya a’zolarining ko‘pchilik ovoz berish yo‘li bilan qabul qilinadi. Ovozlar teng bo‘lgan taqdirda komissiya raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

Tuman komissiya qarorlari tuman komissiya raisi tomonidan tasdiqlanadigan bayonnoma bilan rasmiylashtiriladi.

16.Tuman tashkilot va idoralarning mansabdor shaxslari tuman komissiya qarorlarini bajarish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida tuman komissiyaga o‘n kunlik muddat mobaynida xabar berishlari shart.

17.Tuman komissiya o‘z faoliyatida yuqori turuvchi komissiyalarga hisobdordir, o‘z faoliyati to‘g‘risida har chorak yakunlari bo‘yicha hisobot berib boradilar.

Tuman komissiya faoliyati bo‘yicha hisobotlarning o‘z vaqtida taqdim etilishi va undagi ma’lumotlarning haqqoniyligi uchun tuman komissiya raisi shaxsan javobgar hisoblanadi.

18.Tuman komissiya har yili o‘z faoliyati yuzasidan tegishincha tuman xalq deputatlari Kengashlariga axborot taqdim etib boradi.

19.Tuman komissiya faoliyati izchil ravishda tashkil etilishini ta’minlash maqsadida tuman hokimliklari tizimida mahalliy budjet hisobidan tuman komissiya mas’ul kotiblari, shuningdek, zaruriyat bo‘lganda, oila, bolalar va yoshlar bilan ijtimoiy xizmat olib boruvchi ijtimoiy xodim hamda bola bilan ishlash bo‘yicha inspektorlar faoliyat ko‘rsatadi.

20.Tuman komissiya vakolatiga kiritilgan muhim masalalarni samarali va tezkor tartibda hal qilish uchun vaqtincha yoki doimiy ishlovchi ishchi guruhlar tashkil etilishi mumkin, Ishchi guruhlarni tashkil etish tuman komissiyaning qarori bilan tasdiqlanadi.

5.bob. Tuman komissiya vakolatini tugatish

21.Tuman komissiya raisi, rais o‘rinbosarlari, mas’ul kotibi, a’zolari vakolatlari quyidagi asoslar bo‘yicha tugatiladi:

Qonunchilik hujjatlariga muvofiq tuman komissiya vakolatlari tugaganda;

tuman komissiya raisi (rais o‘rinbosarlari, mas’ul kotibi yoki a’zolari) davlat organi, tashkilot, muassasa, o‘zini o‘zi boshqarish organi yoki jamoat tashkilotida egallab turgan lavozimidan ozod etilganda;

tuman komissiya raisi (rais o‘rinbosarlari, mas’ul kotibi yoki a’zolari) qonuniy kuchga kirgan sud qaroriga asosan uni muomalaga layoqatsiz, muomala layoqatini cheklash va bedarak yo‘qolgan yoki o‘lgan deb topilganda;

tuman komissiya raisi (rais o‘rinbosarlari, mas’ul kotibi yoki a’zolari) qonuniy kuchga kirgan sud qaroriga asosan jinoiy javobgarlikka tortilganda;

tuman komissiya mas’ul kotibi yoki a’zolari o‘z vazifalarini muntazam ravishda bajarmaganda yoki lozim darajada bajarmaganda.

6.bob. Tuman komissiyasi tomonidan ko‘rib chiqiladigan ishlar

22.Tuman komissiya quyidagi mazmundagi ishlarni ko‘rib chiqadi:

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksida nazarda tutilgan tartibda topshirilgan ishlar;

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga muvofiq ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlar;

bolalar va ularning ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarning shikoyatlari;

bolalar bilan ishlaydigan tashkilotlar taqdimnomasi bo‘yicha topshirilgan ishlar;

fuqarolarning arizalari bo‘yicha quriladigan ishlar hamda o‘z tashabbusi bilan ko‘riladigan ishlar.

23.Tuman komissiyasi quyidagi bolalar bilan bog‘liq bo‘lgan masalalari ko‘rib chiqadi:

O‘n to‘rt yoshga to‘lmasdan ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan (o‘n uch yoshga to‘lgandan keyin og‘irlashtiruvchi holatlarda qasddan odam o‘ldirgan voyaga yetmaganlar bundan mustasno);

o‘n to‘rt yoshdan o‘n olti yoshgacha bo‘lgan davrda jinoiy javobgarlik nazarda tutilmagan ijtimoiy xavfli qilmishlar sodir etgan;

o‘n to‘rt yoshdan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan davrda jinoyat alomatlari bo‘lgan qilmishlar sodir etib, ularga nisbatan jinoiy ish qo‘zg‘atish rad qilingan jinoiy ish tugatilgan;

boshqa g‘ayriijtimoiy xatti-harakatlar sodir etgan;

umumiy o‘rta, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta’lim muassasalarida o‘qishdan bosh tortgan;

ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan jinoyatni birinchi marta sodir etganligi uchun qonunchilikka asosan javobgarlikdan ozod qilingan;

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida nazarda tutilgan tartibda ma’muriy huquqbuzarliklar sodir etgan.

Tuman komissiya ishlarni ular komissiyaga tushgan kundan boshlab o‘n kun muddatda ko‘rib chiqadi. Qo‘shimcha o‘rganish talab qilgan taqdirda, bir oygacha bo‘lgan muddatga uzaytirilishi mumkin.

Komissiya tomonidan bolalarga nisbatan ko‘rib chiqilayotgan ishlar yopiq majlisda ko‘rib chiqilishi mumkin.

24.Komissiyaning majlisi komissiya tarkibining yarmidan ko‘pi yig‘ilganda haqiqiy hisoblanadi.

25.Komissiyaning majlisida ishi ko‘rilayotgan bolaning ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslari, himoyachisi, zarur hollarda esa u ta’lim-tarbiya olayotgan muassasa vakillari bo‘lishi shart.

Yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan davlat muassasalarida yashab kelayotgan bolalar manfaatlarini himoya qilish vasiylik va homiy organlari orqali amalga oshiriladi.

Hukm etilgan voyaga yetmaganlarga oid ishlarni ko‘rib chiqishda komissiya majlisida tarbiya koloniyasi ma’muriyatining vakili va mahkumning o‘zi hozir bo‘lishi shart.

26.Ko‘rib chiqishi lozim bo‘lgan masala (ish) komissiyaning raisi, uning o‘rinbosarlari hamda komissiya a’zolari tomonidan oldindan o‘rganib chiqiladi va rais tomonidan:

Ishni komissiya majlisida ko‘rib chiqish;

ishga oid materiallarni qo‘shimcha ravishda tekshirish yoki tushgan arizalar,

taqdimnomalar bo‘yicha tekshirib chiqish xususida qaror qabul qiladi.

27.Huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ish komissiyada (yoki sudda) ko‘rib chiqilgunga qadar voyaga yetmagan o‘z ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar nazoratiga topshirilishi mumkin, yetim va ota-ona qaramog‘isiz qolgan bolalar uchun ta’lim-tarbiya muassasalarida yoki Respublika O‘quv-tarbiya muassasalarida tarbiyalanayotgan bola esa, shu muassasalar ma’muriyatining nazoratiga berilishi mumkin.

Ishi ko‘rib chiqilayotgan bolaning ruhiy jihatdan sog‘lom ekanligiga shubha tug‘ilgan taqdirda, u tibbiyot tekshiruvidan o‘tish uchun yuboriladi.

28.Ish ko‘rishga tayyor deb topilgach, tuman komissiya ish ko‘riladigan vaqt va joyni belgilaydi.

Tuman komissiya yig‘ilishida bola, uning ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarga ularning huquqlari tushuntiriladi, komissiya qarorlari ustidan shikoyat qilish tartibi va boshqa ma’lumotlar beriladi.

29.Ishi ko‘rilayotgan bola, uning ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar tuman komissiya majlisiga uzrsiz sabablar bilan kelishdan bosh tortgan taqdirda, ular tuman komissiya qaroriga asosan ichki ishlar organlari orqali olib kelinishi mumkin.

Ko‘rib chiqilayotgan ish yuzasidan jalb etilgan mansabdor shaxslar va fuqarolar tuman komissiyasi chaqirig‘i bo‘yicha uzrsiz sabablar bilan kelmagan taqdirda, tuman komissiyasi ishni ko‘rib chiqishni qoldirishi, ularni ishlayotgan yoki o‘qiyotgan joyidagi ma’muriyat, nodavlat notijorat tashkilotlari orqali keltirishni ta’minlash choralarini ko‘rishi mumkin.

30.Ish yuritilayotgan tilni bilmaydigan yoki yetarli darajada tushunmaydigan yig‘ilish ishtirokchilariga bepul tarjimon xizmati ko‘rsatiladi.

31.Tuman komissiyasi ish yuzasidan yig‘ilish ishtirokchilarining tushuntirishlarini tinglab, ishning barcha holatlarini har tomonlama ko‘rib chiqqach, quyidagi qarorlardan birini qabul qiladi:

ushbu Nizomning 36-, 37-bandlarida nazarda tutilgan ta’sir ko‘rsatish choralarini qo‘llash;

ishni tugatish;

ishni ko‘rishni qoldirib, qo‘shimcha tekshiruv o‘tkazish;

ishni tergov, surishtiruv yoki tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organlarga topshirish.

32.Tuman komissiyasi bolalarning ma’muriy huquqbuzarliklari to‘g‘risidagi ishlarni O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida nazarda tutilgan tartibda ko‘rib chiqadi.

33.Tuman komissiyasi yig‘ilishi yakunlari yuzasidan bayonnoma tuziladi, unda yig‘ilish bo‘lgan sana va joy, ishning mazmuni, unda ishtirok etgan shaxslarning kelgan-kelmaganligi to‘g‘risidagi ma’lumotlar, ular bergan izohlarining qisqacha mazmuni, ishga oid boshqa ma’lumotlar, qo‘llanilgan ta’sir ko‘rsatish chorasi, shuningdek, qabul qilingan qaror yuzasidan shikoyat berish tartibi va muddatlarini tushuntirish to‘g‘risidagi ma’lumotlar ko‘rsatiladi. Bayonnoma raislik qiluvchi va tuman komissiyaning mas’ul kotibi tomonidan imzolanadi.

34.Tuman komissiyasi qarorlari ko‘pchilik ovoz berish yo‘li bilan qabul qilinadi.

Qaror raislik qiluvchi va tuman komissiyaning mas’ul kotibi tomonidan imzolanadi va qabul qilingandan keyin e’lon qilinadi.

Tuman komissiyasi qarorining nusxasi uch kun mobaynida yig‘ilish ishtirokchilariga, zarur hollarda esa, bolalar bilan ishlaydigan tashkilotlarga topshiriladi yoki pochta, shuningdek, elektron pochta orqali yuboriladi. Tuman komissiya qarori ustidan yuqori komissiyaga yoki sudga shikoyat berilishi mumkin.

35.Tuman komissiyasi qarori yuzasidan shikoyat tegishligi bo‘yicha yuqori turuvchi komissiyaga u chiqarilgan va qaror nusxasini olgan kundan boshlab o‘n kun muddat ichida berilishi mumkin.

Yuqori turuvchi komissiyaning shikoyat bo‘yicha qarori o‘n besh kun ichida qabul qilinishi kerak va chiqarilgan qaror o‘zgartirilmaydi. Yuqori turuvchi komissiya tomonidan qabul qilingan qarorlarni bekor qilish haqida shikoyat bilan sudga murojaat qilish huquqiga ega.

Tuman komissiyasi qarori yuzasidan sudga shikoyat berish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Tuman komissiyasining qarori va shikoyat bo‘yicha chiqarilgan qaror yuzasidan prokuror protest bildirishi mumkin. Prokurorning protest bildirishi shu

protest ko‘rib chiqilgunga qadar komissiya qarorining va shikoyat yuzasidan chiqarilgan qarorning ijrosini to‘xtatib turadi.

7.bob. Ta’sir ko‘rsatish choralari va ularni qo‘llash tartibi

36.Tuman komissiyasi ushbu Nizomning 31-bandida nazarda tutilgan hollarda bolalarga nisbatan quyidagi ta’sir ko‘rsatish choralarini qo‘llashi mumkin:

Yakka tartibdagi profilaktik suhbatlar o‘tkazish;

jabrlanuvchidan uzr so‘rash majburiyatini yuklash;

ogohlantirish;

jamoat tarbiyachisi tayinlash;

qonun doirasida volontyorlik faoliyatiga jalb qilish;

spirtli ichimliklar, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari, psixotrop yoki shaxsning aql-idrokiga ta’sir etuvchi boshqa moddalarni qabul qilishdan davolanish tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash to‘g‘risida tuman (shahar) sudiga taqdimnoma kiritish;

o‘n besh yoshga to‘lgan bolalar zimmasiga, agar u mustaqil ish haqiga ega bo‘lsa va zarar miqdori belgilangan bazaviy hisoblash miqdoridan ortiq bo‘lmasa, yetkazilgan moddiy zararni qoplash yoki uni o‘z mehnati bilan qoplash majburiyatini yuklash to‘g‘risida tuman (shahar) sudiga taqdimnoma kiritish;

o‘n olti yoshga to‘lgan va mustaqil ish haqiga ega bo‘lgan bolalarga O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida nazarda tutilgan hollarda va miqdorlarda jarima solish;

tasarrufida umumta’lim yoki ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalari bo‘lgan vazirlik va idoralarga bolani joylashtirish yuzasidan iltimosnoma kiritish;

bolani qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda Respublika ixtisoslashtirilgan o‘quv-tarbiya muassasalariga joylashtirish to‘g‘risida sudga iltimosnoma yuborish.

Har bir aniq holat bo‘yicha qabul qilingan ta’sir ko‘rsatish choralari to‘g‘risida tuman (shahar) komissiyalari tegishli Tuman mutasaddi tashkilotlarga xabarnoma va yuborishga majbur.

37.Tuman komissiyasi bolalarning ota-onalari yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarga nisbatan quyidagi ta’sir ko‘rsatish choralarini qo‘llashi

mumkin:

Yakka tartibdagi profilaktik suhbatlar o‘tkazish;

ogohlantirish;

O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksida belgilangan miqdorlarda jarima solish.

Ushbu Nizomning 36-, 37-bandlarida nazarda tutilgan ta’sir ko‘rsatish choralarini qo‘llashga har bir holatning xususiyatidan kelib chiqib, individual yondashish va unga asosan tegishli muddatlarni belgilash lozim.

38.Tuman komissiyasining ogohlantirish berish to‘g‘risidagi qarori bir yil mobaynida amal qiladi.

Agar ushbu muddat ichida yangi, huquqbuzarlik sodir etilmasa, ta’sir ko‘rsatish chorasi tugallangan hisoblanadi va namunali axloqi bilan ijobiy natija ko‘rsatgan bolalar yoki uning ota-onasi yoki ularning o‘rnini bosuvchi shaxslarga nisbatan ushbu ta’sir ko‘rsatish chorasi bir yil o‘tmasdan ham bekor qilinishi mumkin.

Belgilangan ta’sir ko‘rsatish chorasi natija bermagan taqdirda, Tuman komissiya ushbu Nizomning 36-, 37-bandida ko‘rsatilgan ta’sir ko‘rsatish choralaridan qattiqroq chora qo‘llashga haqlidir.

39.Jarima solish to‘g‘risidagi qaror shu qaror topshirilgan kundan boshlab o‘n besh kun mobaynida to‘lanishi lozim. Qaror ustidan shikoyat yoki protest berilgan taqdirda esa, mazkur shikoyat yoki protest qondirilmaganligi haqida ma’lumotnoma olingan kundan boshlab o‘n besh kundan kechiktirmay to‘lanadi.

Jarima muddatida to‘lanmagan taqdirda, tuman komissiyasining jarima solish to‘g‘risidagi qarori sud hujjatlarini va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ijro etilishi uchun yuboriladi.

40.Bolani vazirlik va idoralar tasarrufidagi umumta’lim yoki ixtisoslashtirilgan ta’lim muassasalariga yoki Respublika o‘quv-tarbiya muassasalariga joylashtirish ichki ishlar organlarining voyaga yetmaganlarga ijtimoiy-huquqiy yordam ko‘rsatish markazlarining asoslantirilgan xulosasi bilan amalga oshiriladi.

Bolalarni Respublika o‘quv-tarbiya muassasalariga yuborish masalasi eng oxirgi chora sifatida qo‘llanilishi lozim. Tuman idoralararo komissiyalar bolalarni

Respublika o‘quv-tarbiya muassasasiga joylashtirish to‘g‘risida sudga yuborilgan iltimosnomalarning asosliligiga javobgar hisoblanadi.

8.bob. Yakunlovchi qoidalar

41.Tuman komissiyalarni moddiy-texnik jihatdan ta’minlash tegishlicha tuman hokimliklari tomonidan mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi.

42.Tuman komissiyalarni qayta tashkil etish va tugatish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.